



TAF!24 TANLOVI REGLAMENTI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Tanlov tashkilotchilari
2. Tanlov bosqichlari
3. Tanlov ishtirokchilari

II. EKSPERTLAR OVOZ BERISHI

4. TAF!24 tanlovida qatnashish shartlari (ekspertlar ovoz berishi)
5. Ekspertlar hay'ati
6. Xalqaro hay'at
7. Tanlov ishtirokchilari
8. Ekspertlar ovoz berishining nominatsiyalari, keyslarga talablar, baholash mezonlari

III. ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHI

9. "2024-yil reklamasi" tanlovida qatnashish shartlari (iste'molchilar ovoz berishi)
10. Iste'molchilar ochiq ovoz berishi tartibi
11. Iste'molchilar ovoz berishi taomili
12. Iste'molchilar ovoz berishining nominatsiyalari, ishlarga talablar
13. Maxsus sovrinlar
14. Tanlov sovrinlari hamda brendlar va agentliklar reytingi
15. Kontakt ma'lumotlari

1- ilova

2- ilova

I. UMUMIY QOIDALAR

TAF! (Tashkent Advertising Festival!) —har yilgi Toshkent reklama festivali – O‘zbekiston marketing va reklama sohasidagi keng ko‘lamli voqea bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: TAF! tanlovi, xalqaro reklama konferensiyasi.

TAF! missiyasi – fikrlar almashinuvi, dolzarb masalalar muhokamasi, muvaffaqiyatli loyihalar taqdimi uchun professional maydonni yaratish, brendlar rivojlanishiga, marketing va reklama sohasidagi mutaxassislarni birlashtirish va o‘qitishga ko‘maklashish. G‘oyalarni, ularning samaradorligini, shuningdek brendlarning iste'molchilar bilan kommunikatsiyasini ekspert qiyoslash va baholash yo‘li bilan eng yaxshi marketing loyihalarini aniqlash va taqdirlash.

TAF!24 tanlovi —O‘zbekiston Respublikasi hududida 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan eng yaxshi marketing loyihalarini aniqlash. TAF!24 tanlovi 16 ta nominatsiya bo‘yicha ekspertlar ovoz berishini o‘z ichiga oladi.

“2024-yil reklamasi” tanlovi – 2023-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashtiriladigan eng yaxshi reklamani aniqlash. “2024-yil reklamasi” tanlovi 8 ta nominatsiya bo‘yicha iste‘molchilar ovoz berishni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro reklama konferensiyasi – marketing va reklama sohasidagi xalqaro va mahalliy ekspertlarning dolzarb keyslar va tarmoq trendlari bilan chiqishlari.

TAF!24 rasmiy sayti – internet tarmog‘idagi marketing.uz noyob domen nomi ostidagi sayt bo‘lib, unda 3ta landing joylashgan: konferensiya, ekspertlar ovoz berishi va iste'molchilar ovoz berishi. TAF!24 rasmiy sayti forum to‘g‘risidagi axborot manbasi sanaladi. Forum to‘g‘risidagi dolzarb axborot ushbu Reglamentning 1- ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotchi resurslarida joylashtiriladi.

2.TANLOV TASHKILOTCHILARI

TAF!24 tanlov tashkilotchilari: O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, O‘zbekiston marketing uyushmasi.

3.TANLOV BOSQICHLARI

Ekspertlar ovoz berishi uchun keyslar qabul qilinishi: 2024-yil 20-iyundan 2024-yil 9-sentyabrgacha (shu sana ham kiradi).

Iste'molchilar ovoz berishi uchun keyslar qabul qilinishi: 2024-yil 20-iyundan 2024-yil 26-avgustgacha (shu sana ham kiradi).

“2024-yil reklamasi” iste'molchilar ovoz berishi: 2024-yil 3-sentabrdan 2024-yil 27-sentabrgacha (shu sana ham kiradi).

Ekspert hay'atining ovoz berishi: 2024-yil 30-sentabrdan 2024-yil 6-oktabrgacha (shu sana ham kiradi).

Xalqaro hay'at g‘oliblari tanlovi: 2024-yil 10-oktabr.

TAF! Tanlovi g‘oliblarini e‘lon qilish – 2024-yil 12-oktabrdagi Taqdirlash marosimida.

4. TANLOV ISHTIROKCHILARI

1. Reklama beruvchi brendlar va reklamani ishlab chiqaruvchi hamda tarqatuvchi agentlik-kompaniyalar, xususiy tadbirkorlar tanlov ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin.

2. Xorijiy ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi hududida o'zlari mustaqil ravishda yoki O'zbekistonlik mijozlari uchun amalga oshirilgan keyslarni taqdim etishlari mumkin.
3. Brend tomonidan keys taqdim etilganda u, o'z ixtiyoriga ko'ra, keysda qatnashgan barcha ishlab chiqaruvchilar va reklama tarqatuvchilarni ko'rsatish huquqiga ega. Keys g'olib bo'lgan taqdirda, Taqdirlash marosimida sovrinni keysni taqdim etgan va haqini to'lagan brend oladi, qatnashgan agentliklar va brendlar qo'shimcha to'lov asosida tayyorlangan sovrin dublikatini olishlari mumkin. Bunda, diplomda barcha ishtirokchi agentliklar va brendlar ko'rsatiladi, ularning vakillari ham sovrin topshirilishi uchun sahnaga chiqish huquqiga ega.
4. Keys agentlik tomonidan taqdim etiladigan bo'lsa, u oldin tanlovda qatnashishni keys qaysi brend uchun ishlab chiqilgan bo'lsa, o'sha brend bilan kelishib olishi lozim. Diplomda agentlik ham, buyurtmachi-brend ham ko'rsatiladi. Keys g'olib bo'lgan taqdirda diplom, buyurtmachi-brend nomi albatta ko'rsatilgan holda, keysni taqdim etgan va haqini to'lagan agentlikka topshiriladi. Agar keys agentlik tomonidan taqdim etilsa-yu, to'lovni buyurtmachi-brend amalga oshirgan bo'lsa, Taqdirlash marosimida diplom keys haqini to'lagan brendga topshiriladi. Agentlik qo'shimcha to'lov asosida tayyorlangan sovrin dublikatini olishi mumkin. Bunda, Taqdirlash marosimida agentlik vakillari ham, buyurtmachi-brend vakillari ham sahnaga chiqishlari mumkin.

II. EKSPERTLAR OVOZ BERISHI

5. TAF!24 TANLOVIDA QATNASHISH SHARTLARI (EKSPERTLAR OVOZ BERISHI)

1. TAF!24 tanloviga keyslarni ham brendlar, ham agentliklar taqdim etishlari mumkin. Keys – bu muammoni, uni hal qilish jarayoni va yakuniy natijaning tavsifidir.
2. Tanlovda qatnashish uchun www.marketing.uz saytida avtorizatsiyadan o'tish, barcha zaruriy satrlar: tanlov ishtirokchisining kontakt ma'lumotlari, nominatsiya nomi, brend nomi va keys nomi (qisqacha), muammo, yechim, natija maydonlarini to'ldirish va keysni yuklash taomilidan o'tish (PDF-taqdimot yoki YouTube dagi videoga havola). Keys yuklangandan keyin "Jo'natish" tugmasini bosib axborotni jo'natish shart. Tanlov tashkilotchisi 3 ish kuni davomida olingan keysning tanlov talablariga muvofiqligini tekshiradi (moderatsiya) va ishtirokchiga qatnashish haqini to'lash uchun shartnomani yuboradi. Qatnashish haqi to'langach, tanlov keysi www.marketing.uz saytida aks etadi.
3. Tanlovda qatnashish – pulli. Bir keys uchun qatnashish haqi:
 1. 2024-yil 20-iyundan 20-avgustgacha (shu sana ham kiradi) (asosiy ro'yxatdan o'tish) – QQS bilan 1 120 000 so'm. O'zbekiston marketing uyushmasi hamkorlari uchun 50% miqdorida chegirma beriladi. Uchinchi va har bir keyingi keys uchun 50% miqdorida chegirma beriladi. Bunda uyushma hamkorlariga taqdim etiladigan chegirmalar bu turdagi chegirmalarga qo'shilmaydi.
 2. 2024-yil 21-avgustdan 2-sentabrgacha (kech ro'yxatdan o'tish) – QQS bilan 1 120 000 so'm. Chegirmalar berilmaydi.
 3. 2024-yil 3-sentabrdan 9-sentabrgacha (last call) – QQS bilan 2 240 000 so'm. Chegirmalar berilmaydi.
 4. Imtiyozli hamkorlar uchun bitta keys bepul qabul qilinadi. Uyushma premium-hamkorlari uchun tanlovda qatnashish – bepul.
 5. To'lov shartnoma asosida yuridik shaxslar o'rtasida bank o'tkazmasi orqali yoki UZUM, Payme Click orqali amalga oshiriladi.
 6. Bir keysning o'zi bir yoki bir necha nominatsiyaga taqdim etilishi mumkin. Agar bir keysning o'zi ikki yoki undan ko'p nominatsiyaga taqdim etilsa, taqdim etilgan keyslar soni nominatsiyalar soniga tenglashtiriladi va ishtirokchi har bir nominatsiya uchun Reglamentning ushbu bo'limi 3-b.ga muvofiq haq to'laydi.

7. Keys faqat quyidagi talablarga muvofiq kelgandagina tanlovda qatnashyapti, deb hisoblanadi: keys vaqtida taqdim etilsa, keys mazmuni tanlov nominatsiyasiga muvofiq kelsa, shartnoma bo'yicha to'lov o'tkazilsa.
8. Saytda avtorizatsiya qilinmagan va to'lovsiz keyslar tanlovda qatnashishga qo'yilmaydi.
9. Qatnashish haqini to'lash g'alaba kafolati bo'lmaydi.
10. G'oyasi yoki amalga oshirilishi boshqa brendlar keyslaridan ko'chirib olingan keyslar tanlovga qabul qilinmaydi. Feyk keys aniqlanganda tanlov tashkilotchilari yoki hay'at qatnashish haqini qaytarmay, tanlovdan chetlatish huquqiga ega.
11. Keys taqdim etilib, haqi to'langandan keyin ishtirokchi tomonidan tanlovda qatnashishdan voz kechilganda, to'lov qaytarib berilmaydi.
12. Tanlov hay'ati, ishtirokchini xabardor qilgan holda, tanlov keyslarini baholashning istalgan bosqichida keysni boshqa nominatsiyaga o'tkazish huquqiga ega.
13. Tanlovda qatnashish ishtirokchi ushbu Reglament bilan tanishganligini va unga rozi ekanligini anglatadi. Qatnashish haqidagi shartnoma rozilikning yozma tasdig'i bo'ladi.
14. Tanlov ishtirokchisi mualliflik huquqlariga rioya qilish (musiqa, foto, matnlar va boshqalardan qonuniy foydalanish)ni kafolatlaydi va bu boradagi ehtimoliy bahsli masalalarni mustaqil hal qilish majburiyatini zimmasiga oladi. Taqdim etilayotgan tanlov keyslarining muallifga tegishliligi bo'yicha javobgarlikni tanlov ishtirokchisi o'z zimmasiga oladi. Tanlov tashkilotchisi taqdim etilayotgan keyslar muallifligi yoki ko'chirmaligi bo'yicha javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
15. Bahslar yuzaga kelgan holda tanlov keysining maqomini belgilash to'g'risidagi qarorni ekspert hay'ati qabul qiladi.

6. EKSPERTLAR HAY'ATI

1. Tanlov ekspertlar hay'atining tarkibi tashkilotchilar tomonidan marketing, reklama sohasidagi, tegishli professional tajriba va yutuqlarga ega bo'lgan yetakchi mahalliy mutaxassislardan shakllantiriladi. Ekspertlar hay'ati tarkibiga Hay'at to'g'risidagi nizomga muvofiq brendlar va agentliklar vakillari taklif etiladi.
2. Ekspertlar:
 - www.marketing.uz saytida tanlov keysilari bilan tanishadilar;
 - tanlov short-listini belgilaydilar;
 - Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimida qatnashadilar.
3. Ekspertlar hay'ati tomonidan short-list tanlanishi 2024-yil 30-sentabrdan 4-oktabrgacha, jadvalga muvofiq offlayn-muhokama formatida amalga oshiriladi.
4. Ekspertlar hay'ati tarkibidan 4 agentliklar va brendlar vakillaridan iborat jamoalar shakllantiriladi. Har bir jamoaga katta sudya rahbarlik qiladi, u offlayn-uchrashuvning moderatsiyasini amalga oshiradi. Har bir guruh 3-4 nominatsiyadagi short-listni tanlaydi.
5. Short-list tanlov ekspertlar hay'ati ovoz berishi yakunlanganidan keyin marketing.uz saytida chop etiladi.
6. Tanlov ekspertlar hay'ati tarkibi marketing.uz saytida e'lon qilinadi.

7. XALQARO HAY'AT

1. Ekspertlar tanloviga ko'ra tanlov g'oliblarini xalqaro hay'at aniqlaydi.
2. Hay'at tanlov ekspertlar hay'atining ovoz berishi yakunlariga ko'ra short-listga kiritilgan keyslarni ko'rib chiqadi.
3. Xalqaro hay'at tarkibi 2024-yil 4-sentabrdan kechiktirmay www.marketing.uz saytida e'lon qilinadi.
4. Hakamlik Toshkentda, 2024-yil 10-oktabrda bo'lib o'tadi.
5. Festival doirasida xalqaro hay'at a'zolari ishtirokida ishlar tahlili bo'lib o'tadi.

1. EKSPERT OVOZ BERISH NOMINATSIYALARI, KEYSLARGA TALABLAR, BAHOLASH MEZONLARI

Nominatsiya	Nominatsiya tavsifi va baholash mezonlari	Keyslarga talablar
Marketing & Creative effectiveness		
Brand launch / Re-launch	Yangi brend, mahsulotni samarali yo'lga qo'yish yoki yangilangan brend, mahsulotni qayta yo'lga qo'yishga o'lchab bo'ladigan hissa qo'shgan kampaniyalar. Baholash mezonlari - strategiya 25%, g'oya - 25%, natijalar - 50%.	Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi! Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim.
PR campaign	PR-faollikdan sotuvlarni rag'batlantirish, brend obro'sini shakllantirish, taniqliligini oshirish va brendning boshqa maqsadlari va vazifalarini yaxshilash uchun samarali va o'ziga xos foydalanish. Baholash mezonlari - strategiya 25%, g'oya - 25%, natijalar - 50%.	Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushinarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul; Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.
Influencer campaign	Kommunikatsiyada selebriti va inflyuenserlardan foydalanish. Keyslar brend-ambassadorlar va inflyuenserni jalb qilish kampaniya va brend maqsadlari va vazifalariga erishishga qanday yordam berganligini namoyish etishi lozim. Baholash mezonlari - strategiya 30%, g'oya - 20%, natijalar - 50%.	Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa. Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI
Traditions	Milliy madaniyat, an'analardan kampaniya samaradorligini oshirish, marketing maqsadlariga erishish uchun foydalanilgan kampaniyalar. Baholash mezonlari - insayt 30%, g'oya - 20%, natijalar - 50%.	Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.
Creativity & Craft		
Creative Advertising (omni-channel)		
Integrated campaign	Brend messejini samarali yetkazib beruvchi noyob g'oyaga ega va turli media-kanallar (kamida 3 ta turli tashuvchi)dan nostandart foydalanilgan kampaniya. Baholash mezonlari - g'oya 30%, strategiya - 20%, amalga oshirish sifati - 30%, natijalar - 20%	Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi! Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim. Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa,

<p>Low budget</p>	<p>Kichik yoki nolga teng byudjetda tikilgan mablag'lardan maksimal natijani namoyish etgan samarali va noyob kampaniyalar. Baholash mezonlari - insayt 20%, g'oya - 50%, natijalar - 30%.</p>	<p>yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul; Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p> <p>Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, uni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.</p>
-------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Creative advertising (one-channel)

<p>Film</p>	<p>Noyob g'oyaga ega va amalga oshirish sifati yuqori bo'lgan, turli tashuvchilar – TV, Dijital, tashqi tashuvchilar va boshqalar uchun yaratilgan reklama roliklari.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 50%, amalga oshirish sifati - 50%.</p>	<p>Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi!</p> <p>Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim.</p>
<p>Out of home</p>	<p>Tashqi reklama tashuvchilarida amalga oshirilgan kreativ ishlar: tashqi reklama, bilbordlar, LeD-ekranlar, do'konlar peshonalari, plakatlari va boshq.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 50%, amalga oshirish sifati - 50%.</p>	<p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul; Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p> <p>Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, uni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida</p>

		moderatsiya qilinadi.
Digital		
SMM campaign	<p>O'z auditoriyasi bilan muloqotda ijtimoiy tarmoqdan bosh kommunikatsiya kanali sifatida foydalanilgan reklama kampaniyalari.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 30%, strategiya - 20%, amalga oshirish sifati- 20%, natijalar- 30%</p>	<p>Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi!</p> <p>Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim.</p> <p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul; Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p> <p>Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.</p>
Digital campaign	<p>Noyob g'oyalar, insaytlarga ega, o'zaro muloqotning asosiy kanali sifatida veb-saytlar, mobil ilovalar, banner reklamasi va boshqa dijital-vositalar qatnashadigan (jumladan, integratsiyalangan) kampaniyalar.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 30%, strategiya - 20%, amalga oshirish sifati - 20%, natijalar - 30%</p>	<p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul; Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p> <p>Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.</p>
Media & Content		
Excellence in media (one-channel)	<p>Oldinga qo'yilgan vazifalarga erishish uchun maydon xususiyatlari, auditoriya va insaytlar qiziqishlaridan kelib chiqqan holda eng yaxshi yechimlardan foydalangan kampaniyalar.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 20%, strategiya - 50%, natijalar - 30%.</p>	<p>Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi!</p> <p>Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim.</p> <p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul; Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p>

		<p>Texnik talablar</p> <p>Videokeys</p> <p>YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo`lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko`pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri</p> <p>Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o`z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, uni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.</p>
Design		
Identity design (Branding)	Yangi brend, tovar, xizmat yoki kompaniyalar uchun aydentika yaratish kampaniyalari. Baholash mezonlari - g`oya 40%, amalga oshirish sifati 40%, strategiya 20%.	<p>Keys video yoki taqdimot formatida taqdim etilishi lozim.</p> <p>Keys 2 ta: o`zbek va rus tilida bo`lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko`rinishida berilishi lozim.</p> <p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim. Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay`at a`zolariga tushunarsiz o`ziga xos jihatlar bo`lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma`qul. Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p>
Identity design (Rebranding)	Yangi brend, tovar, xizmat yoki kompaniyalar uchun aydentikani yangilash/rebranding bo`yicha kampaniyalar. Baholash mezonlari - g`oya 40%, amalga oshirish sifati 40%, strategiya 20%.	
Packaging design	Qadoq dizaynida kreativ g`oyalar va qarorlar bilan ishlash. Baholash mezonlari - g`oya 40%, amalga oshirish sifati 40%, strategiya 20%.	<p>Texnik talablar</p> <p>Videokeys</p> <p>YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo`lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko`pi bilan 2 daqiqa</p> <p>Axborot tasviri</p> <p>Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o`z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, uni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>PDF-taqdimot</p> <p>Ko`pi bilan 20 ta slayd Yorqinlik – kamida 150 DPI Tomonlar nisbati – 16:9</p>
Social / ESG		
Social / ESG	Biznes-maqсадlar va ijtimoiy muhim vazifalar (salomatlik, ekologiya, ta`lim, jamiyat va boshq.)ni hal qilishni samarali uyg`unlashtirgan, bu maqsadlarni brendning umumiy strategiyasi bilan muvaffaqiyatli	<p>Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi!</p> <p>Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o`zbek va rus tilida bo`lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr</p>

	<p>bog'lagan kampaniyalar.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 30%, insayt 20%, amalga oshirish sifati 20%, natijalar 30%.</p>	<p>ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim.</p> <p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul;</p> <p>Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p> <p>Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, uni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.</p>
--	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Concept

<p>Concept</p>	<p>MADS agentligi hamkorlari bilan birgalikda tashkil topgan nominatsiya. Reklama va ijodkorlikning har qanday sohasida amalga oshirilmagan loyiha.</p> <p>Baholash mezonlari - g'oya 50%, amalga oshirish sifati 50%.</p>	<p>Diqqat! Keys faqat video formatida baholanadi!</p> <p>Keys video formatida taqdim etilishi lozim; Keys 2 ta: o'zbek va rus tilida bo'lishi kerak. Video-keysda ikkinchi tilga tarjima subtitr ko'rinishida berilishi yoki har bir tili alohida bo'lishi lozim.</p> <p>Keysda asosiy jihatlar – muammo, vazifa, yechim va natijalar ochib berilishi lozim; Agar keysda mahalliy yoki xalqaro hay'at a'zolariga tushunarsiz o'ziga xos jihatlar bo'lsa, bu jihatlar (kontekst, mahalliy insayt va sh.k.)ni ochib bergan ma'qul;</p> <p>Keysda agentlik nomi yoki logotipi ishlatilmasligi lozim.</p> <p>Texnik talablar Videokeys YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 3 daqiqa.</p> <p>Axborot tasviri Loyihaning asosiy vizual elementlari va uning tavsifini o'z ichiga olgan surat, .jpg, .png fayl, uni kamida 1920 piksel, yorqinligi</p>
----------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

		<p>kamida 150 DPI</p> <p>Keyslar yuklanganidan keyin 3 kun ichida moderatsiya qilinadi.</p>
--	--	---------------------------------------------------------------------------------------------

Tavsiyalar. Keys javob berishi kerak bo'lgan savollar

1. Natijalarni o'lchash uchun vositalarni ko'rsating. Bu yerda ishtirokchining ixtiyoriga ko'ra marketing va savdolar samaradorligi ko'rsatkichlari va koeffitsientlari (masalan, sotuvlar dinamikasi, qamrov, konversiya, jalb qilinganlik, taniqlilik, kirishlar, bozordagi ulushlar va sh.k.) bo'lishi mumkin.
2. Natijaga olib kelgan keysning asosiy g'oyasi, u qanday paydo bo'lganligi haqida so'zlab bering.
3. Olingan natijalar haqida so'zlab bering va foydalanilgan reklama kommunikatsiyalari turlarini ko'rsating (ijtimoiy tarmoqlardagi video, TVdagi video, tashqi reklama, bosma reklama, qadoq, radio, blogerlar, flaerlar, promoaksiyalar, iventlar va sh.k.)
4. Keysni taqdim etishda g'oyaning asosiy elementlariga e'tibor bering. Agar alohida diqqatni talab qiladigan jihat bo'lsa – alohida ajratib ko'rsating.
5. Bir key bir necha nominatsiya talablariga muvofiq kelishi mumkin. Barcha mos nominatsiyalarda qatnashish tavsiya etiladi.

III. ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHI

9. "2024-YIL REKLAMASI" TANLOVIDA QATNASHISH SHARTLARI (ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHI)

1. TAF!23 tanloviga loyihalarni ham brendlar, ham agentliklar taqdim etishi mumkin. Loyiha – bu reklama, logotip, qadoq, saytga havola – ya'ni, iste'molchilar ovoz beradigan ishlardir.
2. Tanlovda qatnashish uchun www.marketing.uz saytida avtorizatsiyadan o'tish, barcha kerakli satrlarni: tanlov qatnashchisi kontakt ma'lumotlari, nominatsiya nomi, brend nomi va ish nomi (qisqacha) maydonlarini to'ldirish, loyiha to'g'risida matnli tavsif maydonini to'ldirish va loyihani yuklash taomilidan o'tish (PDF-taqdimot yoki YouTube dagi videoga havola) lozim. Loyiha yuklangandan keyin "Jo'natish" tugmasini bosib, axborotni albatta yuborish kerak. Tanlov tashkilotchisi 3 ish kunida olingan loyihaning tanlov talablariga muvofiqligini tekshiradi (moderatsiya) va ishtirokchiga qatnashish haqini to'lashga shartnoma yubradi. Qatnashish haqi to'langach, loyiha www.marketing.uz saytida aks etadi.
3. Tanlovda qatnashish – pulli. Bir loyiha uchun qatnashish haqi:
 - 1.2024-yil 20-iyundan 10-avgustgacha (shu sana ham kiradi) (asosiy ro'yxatdan o'tish) – QQS bilan 1 120 000 so'm. O'zbekiston marketing uyushmasi hamkorlari uchun 50% miqdorida chegirma beriladi. Uchinchi va har bir keyingi keys uchun 50% miqdorida chegirma beriladi. Bunda uyushma hamkorlariga taqdim etiladigan chegirmalar bu turdagi chegirmalarga qo'shilmaydi.
 2. 2024-yil 11-avgustdan 21-sentyabrgacha(kech ro'yxatdan o'tish) – QQS bilan 1 120 000 so'm. Chegirmalar berilmaydi.
 3. 2024-yil 22-sentyabrdan 26-sentyabrgacha (dedlayndan keyin) – QQS bilan 2 240 000 so'm. Chegirmalar berilmaydi.
4. Imtiyozli hamkorlar uchun bitta loyiha bepul qabul qilinadi. Uyushma premium-hamkorlari uchun tanlovda qatnashish – bepul.
5. To'lov shartnoma asosida yuridik shaxslar o'rtasida bank o'tkazmasi orqali yoki UZUM, Payme, Click orqali amalga oshiriladi.

6. Bir loyihaning o'zi bir yoki bir necha nominatsiyaga taqdim etilishi mumkin. Agar bir loyihaning o'zi ikki yoki undan ko'p nominatsiyaga taqdim etilsa, taqdim etilgan loyihalar soni nominatsiyalar soniga tenglashtiriladi va ishtirokchi har bir nominatsiya uchun Reglamentning ushbu bo'limi 3-b.ga muvofiq haq to'laydi.
7. Loyiha faqat quyidagi talablarga muvofiq kelgandagina tanlovda qatnashyapti, deb hisoblanadi: loyiha vaqtida taqdim etilsa, loyiha mazmuni tanlov nominatsiyasiga muvofiq kelsa, shartnoma bo'yicha to'lov o'tkazilsa.
8. Saytda avtorizatsiya qilinmagan va to'lovsiz loyihalar tanlovda qatnashishga qo'yilmaydi.
9. Qatnashish haqini to'lash g'alaba kafolati bo'lmaydi.
10. G'oyasi yoki amalga oshirilishi boshqa brendlar loyihalaridan ko'chirib olingan loyihalar tanlovga qabul qilinmaydi. Feyk loyiha aniqlanganda tanlov tashkilotchilari yoki hay'at qatnashish haqini qaytarmay, tanlovdan chetlatish huquqiga ega.
11. Loyiha taqdim etilib, haqi to'langandan keyin ishtirokchi tomonidan tanlovda qatnashishdan voz kechilganda, to'lov qaytarib berilmaydi.
12. Tanlov hay'ati, ishtirokchini xabardor qilgan holda, tanlov loyihalarini baholashning istalgan bosqichida loyihani boshqa nominatsiyaga o'tkazish huquqiga ega.
13. Tanlovda qatnashish ishtirokchi ushbu Reglament bilan tanishganligini va unga rozi ekanligini anglatadi. Qatnashish haqidagi shartnoma rozilikning yozma tasdig'i bo'ladi.
14. Tanlov ishtirokchisi mualliflik huquqlariga rioya qilish (musiqa, foto, matnlar va boshqalardan qonuniy foydalanish)ni kafolatlaydi va bu boradagi ehtimoliy bahsli masalalarni mustaqil hal qilish majburiyatini zimmasiga oladi. Taqdim etilayotgan tanlov loyihalarining muallifga tegishligi bo'yicha javobgarlikni tanlov ishtirokchisi o'z zimmasiga oladi. Tanlov tashkilotchisi taqdim etilayotgan loyihalar muallifligi yoki ko'chirmaligi bo'yicha javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
15. Bahslar yuzaga kelgan holda tanlov keysining maqomini belgilash to'g'risidagi qarorni ekspert hay'ati qabul qiladi.

10. ISTE'MOLCHILAR OCHIQ OVOZ BERISHI TARTIBI

1. 2024-yil 3-sentabrdan 27-sentabrgacha (shu sana ham kiradi) "2024-yil reklamasi" iste'molchilar ochiq ovoz berishi o'tkaziladi.
2. Ovoz berish @makon_brand_bot telegram-botida o'tkaziladi.
3. Ovoz berishda umumiy asoslarda, 12 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining istalgan fuqarosi, shuningdek chet el fuqarosi qatnashishi mumkin. Voyaga yetmaganlarning tanlovda qatnashishi O'zbekiston Respublikasining belgilangan amaldagi qonunchiligiga muvofiq, ularning qonuniy vakillari orqali amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlarning ovoz berishda qatnashishi uchun ota-onasining birining yoki qonuniy vakilining roziligi kerak bo'ladi.
4. Ovoz berish quyida keltiriladigan 8 ta nominatsiya bo'yicha o'tkaziladi. Mukofotda qatnashish – brendlar yoki agentliklar arizalariga ko'ra.
5. Ovoz berish o'tkazilishi hududi: O'zbekiston Respublikasi.
6. Tashkilotchi ofertaga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega (bu o'zgarishlarni albatta Telegram-botda e'lon qilgan holda).

11. ISTE'MOLCHILARNING OVOZ BERISH TAOMILI

1. "2024-yil reklamasi" tanlovida ovoz berish uchun quyidagilar zarur:
 - A) @makon_brand_bot telegram-botida ro'yxatdan o'tish
 - B) 3 ta savolga javob berish
 - V) 8 ta nominatsiyada eng yaxshi reklamani tanlash va yoqqan loyihaga ovoz berish.Barcha nominatsiyalarda ovoz berish tavsiya qilinadi.
2. Ovoz berishning bir ishtirokchisi faqat bir marta ovoz berishi mumkin. Har bir ovoz loyihaning umumiy hisobiga qo'shib boriladi.
3. Iste'molchilar ovoz berishi statistikasi marketing.uz saytida real vaqt rejimida aks etadi.

4. Tashkilotchilar ovoz berish davomida va yakunlangandan keyin amalga oshiriladigan takroriy verifikatsiya orqali, ovozlarni tekshirish huquqiga ega. Tashkilotchilar ovozlarni tekshirish va SIM-kartalarini almashtirgan foydalanuvchilar, bir nechta o'xshash yoki bir xil akkauntlarga (raqamli foydalanuvchi nomlari (481 482 va boshqalar)) bog'langan shubhali foydalanuvchilarning mavjudligini, bir xildan foydalanishni tekshirish huquqini o'zida saqlab qoladi. SIM-kartalari tekshirish vaqtida javob bermayotgan, qurilmalarda bo'lmagan bunday foydalanuvchilar aniqlangan taqdirda, tashkilotchilar bunday ovozlarni iste'molchi ovoz berish natijalaridan olib tashlashga haqli.
5. Ovoz berish davomida ovoz berishga chaqirishga ruxsat beriladi. Ovoz berishda qatnashganlik uchun yutuqlarga, boshqa moddiy qimmatliklarga ega bo'lish yoki chegirmalar, bonuslar olish va'da qilinadigan chaqiriqlar yoki faollikning boshqa turlari (g'ivlar, tanlovlar, yutuq o'ynalishi)ga ruxsat berilmaydi.
6. G'oliblar 2024-yil 12 oktyabrda bo'lib o'tadigan TAF!24 tanlovi Taqdirlash marosimida e'lon qilinadi.
7. Barcha xohlovchilar loyihalar bilan tanishish uchun www.marketing.uz saytiga o'tishi mumkin.
8. Tanlov tashkilotchilari har qanday tanlov loyihasidan OAVda va internet-resurslarda tanlovni yoritish uchun (mualliflikni albatta ko'rsatgan holda) foydalanish huquqiga ega.

10. ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHI NOMINATSIYALARI, ISHLARGA TALABLAR, OVOZ BERISH MEZONLARI

Nominatsiya	Nominatsiya tavsifi	Talablar
TV-reklama 2024	Video-formatdagi, O'zbekiston Respublikasi TV-kanallarida joylangan reklama	Video-formatdagi ish va uning tavsifi berilgan matnli qism. YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 2 daqiqa
Internetda reklama 2024	Video-formatdagi, Internetda joylangan reklama	Video-formatdagi ish va uning tavsifi berilgan matnli qism YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 2 daqiqa
Radioreklama 2024	Audio-formatdagi, O'zbekiston Respublikasida radioga joylangan reklama	Audio-formatdagi ish va uning tavsifi berilgan matnli qism Har bir tanlov arizasi uchun bitta MP3 formatidagi audiorolik talab etiladi. 128 kbps (minimal)/256 kbps(afzali). Fayl o'lchami 3 Mbdan oshmasligi lozim. Audiorolikning maksimal davomiyligi – 180 sekund.
Tashqi reklama 2024	Video, poster yoki banner formatidagi, O'zbekiston Respublikasi hududidagi LED-ekranlar, bilbordlar va boshqa reklama tashuvchilariga joylangan tashqi reklama	Video, bir yoki seriyali surat formatidagi (bilbordlar va boshqa konstruksiyalardagi poster yoki banner dizaynini ko'rsatuvchi) ish va uning tavsifi berilgan matnli qis YouTube`da chop etilgan, yorqinligi kamida 720p (afzali – 1080p) bo'lgan videoga havola. Video davomiyligi – ko'pi bilan 2 daqiqa Rasm - .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI
Logotip 2024	Brend, kompaniya, mahsulotlar	Bir yoki seriyali surat formatidagi ish va uning tavsifi berilgan (saytga havola bilan)

	va boshqalar logotipi	matnli qism Rasm - .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI
Qadoq 2024	Tovarlar va xizmatlar uchun qadoq, muqova va yorliqning barcha turlari	Bir yoki seriyali surat formatidagi (qadoqning tashqi ko'rishini ko'rsatuvchi) ish va uning tavsifi berilgan matnli qism Rasm - .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI
Sayt 2024	O'zbekiston Respublikasi tijorat kompaniyalari va davlat tashkilotlarining saytlari	Saytning tashqi ko'rishini ko'rsatuvchi bir yoki seriyali surat formatidagi ish va uning tavsifi berilgan (saytga havola bilan) matnli qism Rasm - .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI
Mobil ilova 2024	O'zbekiston Respublikasi tijorat kompaniyalari va davlat tashkilotlarining mobil ilovalari	Mobil ilovaning tashqi ko'rishini ko'rsatuvchi bir yoki seriyali surat formatidagi ish va uning tavsifi berilgan (saytga havola bilan) matnli qism Rasm - .jpg, .png fayl, eni kamida 1920 piksel, yorqinligi kamida 150 DPI

1. Iste'molchilar ovoz berishi mezonlari

A)G'oyaning noyoblighi

B)Reklama qilinayotgan mahsulotning jozibadorligi

13. TANLOVNING MAXSUS SOVRINLARI

1. TAF!23 tanlovida asosiy nominatsiyalardan tashqari 3 ta maxsus sovrin beriladi:
"2024-yilning eng yaxshi reklama beruvchisi"
"2024-yilning eng yaxshi reklama loyihasi"
"2024-yilning eng yaxshi reklama agentligi"
2. Maxsus sovrinlar sohiblari asosiy nominatsiyalarda ekspertlar ovoz berishidagi g'alabalar yakunlari bo'yicha barcha to'plangan ballarni jamlash yo'li bilan aniqlanadi.
3. Maxsus sovrinlar bo'yicha g'alabalar uchun ballar: oltin – 3 ball, kumush – 2 ball, bronza – 1 ball.
4. TAF!24 festivalining barcha hamkorlari 2024-yilda kompaniya ishlarining marketing natijalarini aks ettiruvchi maxsus sovrinlarga ega bo'ladilar.

14. TANLOV SOVRINLARI HAMDA BRENDLAR VA AGENTLIKAR REYTINGI

1. Ekspertlar tanloviga ko'ra "oltin", "kumush" va "bronza" olgan ishtirokchilar g'olib diplomi, sovrindor diplomlari va TAF!23 tanlovi xos haykalchalariga ega bo'ladilar.
2. Iste'molchilar ovoz berishi natijalari bo'yicha birinchi o'rin sohibi oltinga ega bo'ladi. Iste'molchilar tanloviga ko'ra "oltin" olgan ishtirokchilar g'olib diplomi va TAF!24 tanlovi xos haykalchasiga ega bo'ladi.
3. "2024-yilning eng yaxshi reklama beruvchisi" maxsus sovrinini olgan ishtirokchi diplom va TAF!24 tanlovi xos haykalchasiga ega bo'ladi.
4. "2024-yilning eng yaxshi reklama agentligi" maxsus sovrinini olgan ishtirokchi diplom va TAF!24 tanlovi xos haykalchasiga ega bo'ladi.
5. "2024-yilning eng yaxshi reklama loyihasi" maxsus sovrinini olgan ishtirokchi diplom va TAF!24 tanlovi xos haykalchasiga ega bo'ladi.

6. Festival hamkorining maxsus sovriniga ega bo'lgan ishtirokchi diplom va TAF!24 tanlovi xos haykalchasiga ega bo'ladi.
7. Ekspertlar, iste'molchilar ovoz berishi natijalarini e'lon qilish va maxsus sovrinlarni taqdim etish 2024-yil 12-oktabrdagi Taqdirlash marosimida o'tkaziladi. Marosimga qadar tanlov g'oliblari va sovrindorlari to'g'risidagi axborot mutlaqo maxfiy sanaladi va e'lon qilinmaydi.
8. Tanlov natijalari O'zbekiston marketing uyushmasi talqiniga ko'ra Brendlar va agentliklar marketing samaradorligi har yilgi reytingida hisobga olinadi. Maxsus nominatsiyalardagi tanlov g'oliblari 15 ball, oltin – 9 ball, kumush – 5 ball, bronza – 3 ball oladi. Short-list keyslari Reytingda 1 balga ega bo'ladi.
9. Shuningdek, Reytingda tegishli ballarga Mukofotda g'olib bo'lgan brendlarning loyihalarini amalga oshirishda qatnashgan agentliklar ham ega bo'ladi. Bu ballar ham O'zbekiston marketing uyushmasi talqiniga ko'ra Brendlar va agentliklar marketing samaradorligi har yilgi reytingida hisobga olinadi.
10. Ekspertlar hay'ati o'rtasidagi tanlov natijalari Reytingda uch koeffitsient bilan, iste'molchilar o'rtasidagi tanlov natijalari esa – ikki koeffitsient bilan hisobga olinadi.
11. Tashkilotchilar, hamkorlarning rasmiy murojaatiga ko'ra, ekspertlar hay'ati bilan kelishgan holda, maxsus mukofotlar ko'rinishida qo'shimcha sovrinlar ta'sis etishi mumkin.

15. KONTAKT MA'LUMOTLARI

O'zbekiston marketing uyushmasi
100007, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek shoh ko'chasi, 25
Tel.: +998 (97) 402-28-20, +998 (97) 037-28-20
e-mail: info@marketing.uz

1- ilova

TAF!24 tanlovi to'g'risidagi axborot joylanuvchi uyushma resurslari (o'zbek va rus)

Sayt

<https://marketing.uz>

Telegram

<https://t.me/uzbekmarketing>

<https://t.me/makonmarketing>

Instagram

https://instagram.com/uzbekmarketing?utm_medium=copy_link

https://instagram.com/makon_marketing?igshid=ZWQyN2ExYTkWZQ==

Facebook

<https://www.facebook.com/uzbekmarketing>

<https://www.facebook.com/MakonMarketing>

YouTube

<https://www.youtube.com/c/MAKONMARKETINGUZ>

2- ilova

Tanlovda qatnashishga ariza shakli (marketing.uz saytida to'ldiriladi)

Ekspertlar ovoz berishi

Ismingiz	
Kimning nomidan tanlovda qatnashasiz?	Agentlik Brend
Nominatsiya(lar)ni tanlang	
Keys nomi	
Reklama qilinayotgan mahsulot	
Kirish axborot, kontekst	
Muammo, vazifa	
Yechim	
Natijalar	
Faylni yuklash	Fayllarni yuklash yoki havolani yo'llash darchasi

Tanlovda qatnashishga ariza shakli (marketing.uz saytida to'ldiriladi)

Iste'molchilar ovoz berishi

Ismingiz	
Kimning nomidan tanlovda qatnashasiz?	Agentlik Brend
Nominatsiya(lar)ni tanlang	
Loyiha nomi	
Reklama qilinayotgan mahsulot	
Loyiha tavsifi	
Faylni yuklash	Fayllarni yuklash yoki havolani yo'llash darchasi